

DAVLAT MADANIYAT MUASSASALARI VA DAVLAT ARXIVLARI XODIMLARINING MEHNAT HAQISI 45 FOIZGA OSHIRILADI

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)



Bu haqda 2018 yil 14-may kuni Muhtaram Prezidentimizning “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to`lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag`batlantirishni kuchaytirish to`g`risida”gi qarori qabul qilindi.



Mazkur qarorga muvofiq 2018 yil 1 iyundan davlat madaniyat muassasalari artistlari, ma`muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, ijodiy va boshqa xodimlarining, shuningdek, davlat arxivlari boshqaruv xodimlari va mutaxassislarining mehnat haqi miqdorlarini o`rtacha 45 foizga oshirish belgilangan.

Qarorda shuningdek, 2018 yil 1 iyundan O`zbekiston davlat tsirki, hayvonot bog`lari, O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining ko`zi ojizlar uchun kutubxonalari hamda davlat arxivlari xodimlarining alohida toifalariga teatr-konsert tashkilotlarining artistlari va badiiy xodimlariga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun belgilangan miqdorlarda har oyda taqdirlash puli to`lanishini, ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to`lovi stavkasining 30 foizdan 5 foizgacha pasaytirilishi kabi imtiyozlar berish belgilangan.

Qarorning to`liq matni bilan Uza va Vazirlar Kengashi rasmiy veb-saytida tanishingiz mumkin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Axborot xizmati

15.05.2018 09:22 da elon qilingan, marta korib chiqildi